



BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR TAHLILI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Ruziyev Shavkatjon

Samarqand viloyati g'aznachilik xizmati boshqarmasi

ORCID:0009-0001-6474-3618

ruziyevshavkatjon36@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada budget tashkilotlarida asosiy vositalar bo'yicha boshqaruv tahlilini amalga oshirishning bosqichma-bosqich uslubiyoti yoritilgan. Tahlil natijalariga tayangan holda, davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy vositalarni boshqarish siyosatini shakllantirish zarurligi asoslangan. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi asosiy vositalardan oqilona foydalanishni ta'minlash hamda erishilgan natijalarni yuqori turuvchi budget mablag'lari taqsimlovchi organlarga taqdim etishdan iborat.

Kalit so'zlar: budget tashkiloti, asosiy vositalarning boshqaruv tahlili, budget xarajatlari smetasi, asosiy vositalarni boshqarish siyosati.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ АНАЛИЗА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Рузиев Шавкатжон

Управления казначейской службы Самаркандской област

Аннотация. В статье рассмотрена поэтапная методика осуществления управленческого анализа основных средств в бюджетных организациях. На основе результатов анализа обоснована необходимость формирования политики управления основными средствами, направленной на повышение эффективности использования государственного имущества. Основной целью данной политики является обеспечение рациональной эксплуатации основных средств, а также представление достигнутых результатов вышестоящим распорядителям бюджетных средств.

Ключевые слова: бюджетная организация, управленческий анализ основных средств, смета бюджетных расходов, политика управления основными средствами.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ANALYZING FIXED ASSETS IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Ruziyev Shavkatjon

Management Treasury Service of Samarkand Region

Abstract. The article examines a step-by-step methodology for conducting managerial analysis of fixed assets in budgetary organizations. Based on the results of the analysis, the necessity of developing a fixed asset management policy aimed at increasing the efficiency of the use of state property is substantiated. The main objective of this policy is to ensure the rational utilization of fixed assets and to report the achieved results to higher-level budget fund administrators.

Keywords: budgetary organization, managerial analysis of fixed assets, budget expenditure estimate, fixed asset management policy.

Kirish.

Hozirgi kunda budget tashkilotlari faoliyatida davlat mulkidan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda asosiy vositalar budget tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini shakllantiruvchi hamda ularning funksional faoliyatini uzluksiz amalga oshirishda muhim o'rin tutuvchi resurslar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, asosiy vositalarning holati, harakati va ulardan foydalanish samaradorligini baholash masalalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Budget tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini yuritish va nazorat qilish amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solingan bo'lsa-da, ularning boshqaruv tahlilini amalga oshirish uslubiyotlari yetarli darajada takomillashmagan. Amaliyotda mavjud tahliliy yondashuvlar ko'proq moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan cheklangan bo'lib, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash imkoniyatini to'liq ta'minlamaydi. Bu esa davlat mulkini boshqarishda oqilona qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Shu munosabat bilan budget tashkilotlarida asosiy vositalar tahlilini boshqaruv ehtiyojlariga moslashtirish, uning bosqichma-bosqich uslubiyotini ishlab chiqish hamda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Asosiy vositalar tahlili natijalarini budget xarajatlari samaradorligini oshirish, resurslardan maqsadli foydalanish va yuqori turuvchi budget mablag'lari taqsimlovchi organlar uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirishda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada budget tashkilotlarida asosiy vositalar tahlili uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilib, ularni amaliyotga joriy etish orqali davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Budget tashkilotlarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xorijiy adabiyotlarda ushbu masalalar ko'proq aktivlarni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va investitsion samaradorlikni oshirish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa davlat va budget tashkilotlarida asosiy vositalarni boshqarish tizimlari samaradorlikni baholashning integratsiyalashgan yondashuvlari asosida tashkil etilgan. Mahalliy tadqiqotchilar ham budget tashkilotlarida asosiy vositalar bilan bog'liq moliyaviy va operatsion muammolarni o'rganib, ularni muntazam texnik xizmat ko'rsatish, yangilash va rejalashtirilgan investitsiyalar orqali modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqmoqdalar. Natijada, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar budget tashkilotlarida asosiy vositalar boshqaruvini takomillashtirish, resurslardan maqsadli va oqilona foydalanish hamda davlat mulkidan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatmoqda.

Salkovskaya (2015) maqolasida asosiy vositalarni tahlil qilish metodikasini takomillashtirish, ularning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini hisoblash usullari ko'rib chiqilgan.

Avetisyan o'z maqolasida asosiy vositalarni tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari haqida to'xtalib o'tadi. Muallif tashkilot asosiy vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish rezervlarini aniqlash, texnik qayta jihozlash, yangilash va texnik bazani kengaytirish bo'yicha investitsiyalar zarurligini asoslaydi.

Ukrainalik mutaxassis Kovalning (2023) fikricha, korxonalarda asosiy vositalarni hisobga olishning jihatlari hamda ularning urush sharoitidagi qonuniy va normativ-huquqiy ta'minoti dolzarb masala hisoblanadi. Asosiy vositalarni hisobga olishning amaldagi nazariy asoslari, usullari, tashkil etilishi va amaliyotini baholash, ularni takomillashtirish yo'llarini

ko'rib chiqish hamda budjet tashkilotlarida muvozanatli hisob va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlash yuqoridagi muallif tadqiqotining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Rossiyalik mutaxassis Gerasimova (2019) budjet muassasalari resurslaridan foydalanishni optimallashtirish va natijalarga asoslangan boshqaruvni ta'minlash uchun tahlil va samaradorlikni baholashning yangi yo'nalishlari dolzarbligini ko'rsatib o'tadi. Tadqiqotda samarali tahlil tizimini yaratishga to'sqinlik qiluvchi muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan, davlat moliyaviy va moddiy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga innovatsion yondashuvlar taklif etilgan. Shuningdek, budjet muassasasining moliyaviy holati, natijalari va xavflari baholangan, moliyaviy tahlilning maqsadlari va ustuvor usullari aniqlangan hamda buxgalteriya va buxgalteriya bo'lmagan ma'lumotlar asosida budjet ijrosining samaradorligi baholangan.

Prodanchuk (2020) olib borgan tadqiqotlar budjet muassasalarida uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishdagi muammoli jihatlarini aniqlash hisob va hisobot ma'lumotlarining informativligini oshirish, ularning aniqligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini ta'minlash imkonini bergan. Uzoq muddatli aktivlarning hisobga olinishi jihatlarini takomillashtirish ichki nazorat (shu jumladan inventarizatsiya) samaradorligini oshirishga va shu orqali budjet muassasalarida ularni boshqarishni yaxshilashga yordam berishi mualliflar tomonidan alohoda e'tirof etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada budjet tashkilotlarida asosiy vositalar tahlilini amalga oshirish jarayonlarini o'rganish uchun tizimli yondashuv asosida bir qator tadqiqot usullari qo'llangan. Epistemologik usul "asosiy vositalar" tushunchasining mazmunini aniqlash va chuqurlashtirishda, umumiy ilmiy usullar – analiz, sintez, induksiya, deduksiya, abstraktsiya, idealizatsiya va umumlashtirish – esa asosiy vositalarni boshqarish, hisobga olish va tahlil qilish nazariyasi va metodikasini ishlab chiqishda ishlatilgan. Bibliografik va bibliometrik tahlillar orqali nazariya va metodikadagi mavjud yo'nalishlar, muammoli jihatlar va ularni takomillashtirish tendensiyalari aniqlangan, formalizatsiya usuli esa asosiy vositalarni hisobga olishdagi muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga imkon yaratgan.

Tahlil va natijalar.

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni boshqaruv tahlilini samarali tashkil etish uchun mazkur tahliliy ishning maqsadlari, vazifalari va bosqichlarini aniq belgilash zarur. Shu bilan birga, tahlil jarayonida asosiy vositalarning holati, samaradorligi va ularning tashkilot faoliyatiga ta'siri tizimli ravishda o'rganilishi lozim. Har bir bosqichda ma'lumotlar yig'ish, ularni qayta ishlash va natijalarni baholash mexanizmlari aniq belgilanib, tahlilning maqsadga muvofiqligi va natijadorligi ta'minlanishi kerak. Bu esa budjet tashkilotlarida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ichki nazoratni kuchaytirish hamda asosiy vositalarni boshqarishning samaradorligini oshirish imkonini beradi.



1-rasm. Asosiy vositalar boshqaruv tahlilining asosiy maqsadlari


Belgilangan maqsadlarga erishish uchun budget tashkilotida asosiy vositalarning tarkibi, harakati, ekspluatatsiyasi va texnik xususiyatlarini tahlil qilish bo'yicha quyida keltirilgan vazifalarni hal qilish zarur (2-rasm). Ushbu vazifalar asosiy vositalarning mavjudligini va ularning moliyaviy qiymatini aniqlash, harakatini va o'zgarish dinamikasini kuzatish, texnik holatini baholash, shuningdek, ekspluatatsiya samaradorligini o'rganishni o'z ichiga oladi.



21-rasm. Asosiy vositalar boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari

Har bir vazifa tizimli ravishda bajarilganda, bu budget tashkilotlarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularni boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini takomillashtirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, natijalar hisoboti va tahliliy xulosalar rahbariyatga asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlar bazasini taqdim etadi.

Blankning (1999) tavsiyalariga tayangan holda va budget muassasalariga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni boshqaruv tahlilining bosqichlarini shakllantirib, ularni 3-rasmda taqdim etamiz.



3-rasm. Budget tashkilotlarida asosiy vositalarni boshqarish siyosatini shakllantirish bosqichlari

Birinchi bosqichda budget muassasasida asosiy vositalarni boshqaruv tahlili doirasida ularning guruhlari umumiy summadagi ulushi normativ tasnifga muvofiq o'rganiladi.

Ikkinchi bosqichda asosiy vositalarning harakati tahlil qilinadi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: yangilanish koeffitsienti, chiqarib yuborish koeffitsienti, o'sish koeffitsienti, shuningdek, asosiy vositalarning faol va passiv qismlarining fond-uskunaligi koeffitsienti.

Uchinchi bosqichda asosiy vositalarning eskirish darajasi baholanadi; bunga asosiy vositalarning o'rtacha xizmat muddati ko'rsatkichi va eskirish koeffitsienti kabi indikatorlar yordamida erishiladi.

To'rtinchi bosqichda asosiy vositalarni tahlil budget xarajatlari bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni ma'lum muassasaga tegishli asosiy vositalarning harakati bilan bog'liq xarajatlar tahlil qilinadi va quyidagi formuladan (1) foydalaniladi:

$$Ijro foizi = \frac{\text{Asosiy vosita xarajatlari} + \text{Boshqa xarajatlar}}{\text{Budget bo'yicha ajratilgan xarajatlar}} * 100\%$$

Ushbu formula budget muassasasining ma'lum davrdagi budget xarajatlari bajarilish foizini hisoblash uchun qo'llaniladi. Yuqoridagi kasrda asosiy vositalarga va boshqa xarajatlarga sarflangan mablag'lar yig'indisi, pastki qismda esa budgetdan ajratilgan jami mablag'lar aks ettirilgan. Natija 100% ga ko'paytirilib, budget resurslarining samarali ishlatilish darajasi aniqlanadi. Agar foiz 100% dan past bo'lsa, muassasa budget mablag'laridan to'liq foydalanmaganligi, aks holda ortiqcha xarajat yoki boshqa moliyaviy noaniqliklar mavjudligi ko'rsatiladi.

Keyingi bosqichda asosiy vositalarni yangilash siyosatini shakllantirish doirasida muassasaning asosiy vositalarga bo'lgan umumiy ehtiyojini hisoblash zarur. Ushbu hisob-kitob

qiymat ifodasida kelgusi davr uchun amalga oshiriladi va asosiy vositalarning umumiy hajmini optimallashtirish usullaridan biri hisoblanadi (4-rasm).

$$OP = (OC_{oxirida} - OC_{passiv}) * (1 + \Delta k_{yangilanish}) * (1 + \Delta k_{o'sish}) * (1 + \Delta F_{aktiv}) * (1 / \Delta T_c)$$

OP — muassasaning kelgusi davr uchun asosiy vositalarning aktiv qismiga bo'lgan umumiy ehtiyoji;

OC_{oxirida} — hisobot davri oxirida foydalanilayotgan barcha asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati;

OC_{passiv} — davr oxiridagi asosiy vositalar passiv qismining boshlang'ich qiymati;

$\Delta k_{yangilanish}$ — asosiy vositalar o'sish koeffitsientining rejalashtirilgan o'sishi;

$\Delta k_{o'sish}$ — asosiy vositalarni yangilash koeffitsientining rejalashtirilgan o'sishi;

ΔF_{aktiv} — muassasaning fond bilan qurollanganlik koeffitsientining rejalashtirilgan o'sishi;

ΔT_c — muassasa asosiy vositalari o'rtacha xizmat muddatining rejalashtirilgan qisqarishi.

4-rasm. Muassasaning kelgusi davr uchun asosiy vositalarning faol qismiga bo'lgan umumiy ehtiyojini hisoblash

Yuqorida keltirilgan formuladan foydalanib, muassasa uchun asosiy vositalarning faol qismining miqdori hisoblanadi, bu esa asosiy vositalarni boshqarish siyosatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur. Olingan natijaga tayangan holda, asosiy vositalarni yangilashning kerakli hajmi pul ifodasida hisoblanadi, bu esa asosiy vositalarni oddiy va kengaytirilgan tiklash bilan bog'liq. (5-rasm). Oddiy tiklash bevosita eskirgan va ishlashdan chiqqan mashina va uskunalarni yangi asosiy vositalar bilan proportsional almashtirish bilan bog'liq.

$$OBA_{keng} = OP - FN_{ova} + CB_{jis} + CB_{man}$$

OBA_{keng} — kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalarni yangilashning zarur hajmi.

OP — muassasaning asosiy vositalar aktiv qismiga bo'lgan umumiy ehtiyoji (oldingi formula bo'yicha hisoblanadi).

FN_{ova} — hisobot davri oxirida foydalanilayotgan asosiy vositalarning amaldagi mavjudligi.


CB_{jis} — jismoniy eskirish sababli kelgusi davrda chiqib ketadigan asosiy vositalar qiymati.

CB_{man} — ma'naviy eskirish sababli kelgusi davrda chiqib ketadigan asosiy vositalar qiymati.

5-rasm. Asosiy vositalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini hisoblash

Asosiy vositalarni yangilash quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi (6-rasm).

Yuqorida sanab o'tilgan metodikalar natijalari asosida tashkilotda asosiy vositalarni yangilash uchun zarur bo'lgan umumiy ehtiyojni aniqlash mumkin. Bu ehtiyoj asosiy vositalarning alohida turlari va guruhlarini hisobga olish imkonini beradi. Masalan, agar korxonada turli texnologiyali va yoshi turlicha bo'lgan uskuna bo'lsa, ularning har biri uchun yangilash yoki ta'mirlash talablari alohida aniqlanadi.



6-rasm. Asosiy vositalarni yangilashning asosiy shakllari

Boshqaruv tahlili jarayonining so'nggi bosqichi – bu **asosiy vositalarni boshqarish siyosatini** shakllantirish hisoblanadi. Bu bosqichda:

1. Asosiy vositalarni optimal hajmda foydalanish va ularni yangilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.
2. Moliyaviy smetalar va budjetlar tayyorlanadi.
3. Hisob-kitoblar yuqori darajadagi, ya'ni davlat yoki korxonaning rahbarlik organlariga taqdim etiladi.

Siyosatning asosiy maqsadi – kelgusi davr uchun asosiy vositalarni samarali boshqarish va ularning eskirishini nazorat qilishdir. Bu esa, o'z navbatida, resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Hisob-kitoblar va tahlillar to'liq bajarilgandan so'ng, tashkilot **asosiy vositalarni boshqarish bo'yicha smeta (budjet)** tuzishi kerak. Bu smetada:

- Yangilash yoki ta'mirlash uchun kerakli mablag'lar;
- Moliyaviy resurslar taqsimoti;
- Asosiy vositalarning turli guruhlar bo'yicha xarajatlar ko'rsatilgan bo'ladi.

Afsuski, normativ-huquqiy darajada asosiy vositalarni boshqarish xarajatlari uchun tasdiqlangan standart smeta mavjud emas. Shu sababli, tashkilotlar **umumiy tavsiyalarga tayanadi**, masalan:

- xarajatlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish;
- resurslarni maqsadli taqsimlash;
- asosiy vositalarning eskirish payti va imkoniyatlarini hisobga olish.

Shuningdek, 7-rasmda ushbu jarayonning vizual sxemasi keltirilgan bo'lib, unda asosiy vositalarni tahlil qilish, smeta va budjet tuzish, va ularni yuqori organlarga taqdim qilish bosqichlari ko'rsatilgan.

Shunday qilib, davlat muassasalarida asosiy vositalarni (OS) boshqarish bo'yicha boshqaruv tahlili jarayonida yuqorida taqdim etilgan metodik tavsiyalarni qo'llash orqali kelgusi davr uchun asosiy vositalarni boshqarish siyosati shakllantiriladi. Ushbu siyosat yuqori darajadagi boshqaruv organiga taqdim etiladi va uning ko'rib chiqilishi natijasida muassasaga budjet majburiyatlari limiti belgilanadi.



7-rasm. Asosiy vositalarning boshqaruv tahlilini o'tkazishda tavsiyalar

Budjet majburiyatlari limiti muassasa faoliyati uchun quyidagilarni aniq belgilaydi:

1. Kelgusi davrda asosiy vositalarni yangilash, ta'mirlash va saqlash bo'yicha xarajatlar hajmi;
2. Xarajatlarning turlari va maqolalari;
3. Moliyaviy resurslarni maqsadli va samarali taqsimlash tartibi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu mexanizm nafaqat asosiy vositalarning samarali ishlatilishini ta'minlaydi, balki davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, muassasa faoliyatining shaffofligi va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, boshqaruv siyosatini ishlab chiqish va budjet limiti orqali amalga oshirish, muassasalarga uzoq muddatli rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Akademik nuqtai nazardan, bu jarayon tashkilotning strategik boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Asosiy vositalarni boshqarish siyosati va budjet majburiyatlari limiti orqali amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshiradi, balki davlat muassasalarida boshqaruvning shaffofligini va javobgarlikni kuchaytiradi. Shu sababli, asosiy vositalarni boshqarish siyosati davlat muassasalarining operatsion va strategik maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv tahlili natijasida ishlab chiqilgan siyosat va budjet limiti, asosiy vositalarning optimal ishlatilishi, resurslarni maqbul taqsimlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlat muassasalarida samarali boshqaruvning barqaror tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Andriiovych, Prodanchuk Mykhailo, and Bezdushna Yuliia Serhiivna(2020). "Accounting for non-current assets in budgetary institutions: problems and solutions." *Ekonomika APK* 12.

Blank, I. A. (2018) "Finansovyy menedjment: uchebnyy kurs." K.: Nika-tsentr 528 (1999): 4.

Bogomolova, L. Yu., va Yu. A. Saveleva. "Osobennosti poetapnogo postroenia metodiki upravlencheskogo analiza osnovnyx sredstv v gosudarsvennyx kazennyx uchrejdeniakh." *Perspektivy razvitiya stroitelnogo kompleksa* 12: 255-259.

Gerasimova, Larisa (2019). "Financial analysis in budgetary institutions." *International Scientific Siberian Transport Forum*. Cham: Springer International Publishing,.

Koval, Natalia (2023). "Organizational and methodological aspects of accounting of fixed assets of budget institutions." In: *Theoretical and practical aspects of science development: Scientific monograph. Part 1*. Riga, Latvia: Baltija Publishing, 2023. P. 85-117. DOI: <https://doi.org/10.30525/978-9934-26-355-2-4>.

Аветисян, А. Р. (2019). "Совершенствование методики анализа основных средств." *НОВЫЕ МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ*.

Мухаметов, Абубакр Бобоевич, and Акмал Абдулазизович Абдувохидов (2022). "Ўзбекистон республикасида ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби." *Gospodarka i Innowacje*: 88-96.

Муҳамметов, А., Абдувахидов, А., Матрасулов, Б., & Саматқулов, М. (2021). Ишлаб чиқариш харажатларини туркумлаш ва уларнинг ҳисоби. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 351-358.

Сальковская, И. М. (2015). "Совершенствование методики анализа основных средств." *Энергия науки*.